

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI  
SHAKLLANTIRISH MAZMUNI**

**Altibayeva Gulbaxor Majitovna**

*Termiz davlat Pedagogika instituti, o'qituvchi*

**Eronqulova Xolniso Xolto'rayevna**

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Bolalarni mehnatni sevish ruhida tarbiyalash - butun insoniyatni tarbiyalash demakdir. Shu boisdan yosh avlodni mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash barcha ta'lim-tarbiya tashkilotlari faoliyatining asosiy negizi bo'lib qolmoqda.*

**Kalif so'zlar:** *mehnat, bolalar, ta'lim tarbiya, barkamol avlod, mehnat tarbiyasi, maktabgacha ta'lim,*

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o'rnini beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli, mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotining negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Mehnat ma'lum ijtimoiy foydali moddiy yoki ma'naviy ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdir. Mehnat faoliyati insonning asosiy faoliyatidir. Agar katta kishilar mehnat qilishdan to'xtab qoladigan bo'lsa, insoniyat zoti o'z hayotini tugatgan bo'lar edi. Mehnat odam psixikasining tarkib topishi faktori sifatida bolalar hayotida ham muhim ahamiyatga ega.

Yosh bola ham tom ma'nosida mehnat qilmaydi. Uning mehnat jarayoni avvalo o'yin keyinchalik o'qish-o'rganish jarayoni bilan bog'liq holda rivojlanadi. Agar yosh bolaga "ana uni menga olib kelib ber" – desangiz uni sizga qiynalib olib keladi. Bola bunda harakat qiladi va uni o'ynab bajarishi mumkin, lekin u o'z harakatida mehnat elementlarini bajaradi.

Mehnat ijobiy, ongli munosabatni tarbiyalashi lozim. Chunki bola mehnat qilib, avvalo qiyinchiliklarga bardosh berishga, o'z-o'zini boshqarishga, sabr toqatli bo'lishga o'rganadi. Keyinchalik kishilarning mehnatini qadrlashga, uni mohiyatini anglashga, undan zavqlanishga, jiddiy mehnatga muhabbat bilan qarashiga, mehnatsiz baxtli bo'lish mumkin

emasligini anglashga o`rganadi. Hammadan ham muhimi u mehnat qilib, undan zavqlanadi va mehnatni qadriga yetadigan bo`lib qoladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnat tarbiyasi bilan birga ijtimoiy ishlarda qatnashishi ham muhimdir, Chunki u ham bola uchun mehnatdir. Bog`chada turli-tuman ishlarga qatnashishi, jumladan, guruhlarda navbatchilik qilish, gullarni sug`orish, plastilin va loydan buyumlar yasashda, qirqib yopishtirish, qurilish materiallari bilan ishlash mashg`ulotlarida tarbiyachiga yordam berish, mehnat anjomlarini, o`yinchoqlarni joy-joyiga qo`yish kabilar ham bolani mas`uliyatni his qilishga, o`z burchini anglashga, uni sadoqat bilan bajarishga o`rgatib boradi.

Bolalarni mehnatni sevish ruhida tarbiyalash - butun insoniyatni tarbiyalash demakdir. Shu boisdan yosh avlodni mehnatga to`g`ri munosabatda bo`lish ruhida tarbiyalash barcha ta`lim-tarbiya tashkilotlari faoliyatining asosiy negizi bo`lib qolmoqda.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar quyidagi mehnat turlariga jalb qilinadi:

- o`z - o`ziga xizmat qilish
- xo`jalik va maishiy mehnat
- tabiat quchog`idagi mehnat
- qo`l mehnati.

O`z - o`ziga xizmat qilish - bolalar mehnatining bir turi bo`lib, unda bolalar ilk yoshdan boshlab mustaqil ovqatlanish, yuvinish, kiyinish va yechinishga, o`yinchoqlarni yig`ishtirib qo`yishga o`rgatiladi, o`z - o`ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma`lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi. Bolalar qo`llaridan kelgan ishni mustaqil bajarishga o`rganadilar. O`z - o`ziga xizmat bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uygotadi, batartiblik, intizomli bo`lishga ham odobga o`rgatadi. Bolalar xo`jalik - maishiy mehnatga bolalar bog`chasida va oilada jalb etiladi. Uning mazmuni har xil bo`ladi: xona va bog`cha maydonchasini, xonani yig`ishtirish, idish - tovoqlarni yig`ishtirish, choy idishlarini, qo`g`irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg`ulotga kerakli materiallarni tayyorlab qo`yish, mashg`ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yigishtirib olish.

Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo`lib, o`simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to`g`risidagi bilimlar manbai, bolalarda ishchanlikni, tabiatga ehtiyotkorona munosabatini tarbiyalashda muhim sanaladi. Qo`l mehnati mashg`ulot, o`yinlarga, mehnat faoliyati uchun zarur bo`lgan o`yinchoq va qazilmalarni

tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir. bolalarning jamoa mehnati dastlabki jamoatchilik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Jamoa mehnatida birgalikda harakat qilish, o'zaro yordam, shu bilan birga mehnat taqsimoti ham mujassamlashgan bo'ladi. birgalikdagi mehnatni, masalan, xonani yig'ishtirishda, tabiatdagi mehnatda yetish mumkin. Bu yerda bolalarning ish-harakatida o'zaro mutanosiblik bo'lishi, ya'ni har bola bir xilda chaqqonlik bilan harakat qilishi kerak, buning natijasida ma'lum mehnat munosabatlari yuzaga keladi. Bunday vaziyatda tarbiyachining bolalar o'rtasida to'g'ri munosabatni o'rnatishga qaratilgan bevosita rahbarligi muhim sanaladi.

Bunday rahbarlik ma'lum izchillikda amalga oshiriladi:

2. Mehnat malakalarini shakllantirish
3. Bolalarning - umumiy mehnatini tashkil etish.
4. Bolalarning birgalikdagi mehnatini tashkil etish.

Bolalar bog'chasida mehnat tarbiyasining vazifalari va mazmunini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerakli shart

-sharoitlar yaratilishi kerak. Bolalar mehnati uchun avvalo joy, vaqt, gigienik sharoitlar yaratilmog'i lozim, ozodalik, toza havo, kerakli darajadagi yorug'lik, mehnatning bolalar imkoniyatini muvofiq bo'lishi, mehnat vaqtini bolalar yoshiga qarab to'g'ri belgilash (kichik yoshli bolalar uchun 21-23 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 26-31 daqiqa).

Bolalar harakatlarini almashtirib turishni ham e'tiborga olish kerak. Bolalarga to'g'ri mehnat tarbiyasi berishda kattalarning bir - biri bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi, hamkorlikda ishlashi ijobiy natija beradi. Ayniqsa tarbiyachining har qanday mehnatga nisbatan vijdonan munosabati, uning har xil kasb egalariga hurmat bilan qarashi katta ahamiyatga egadir, mehnat ta'limi jarayonida va uni tashkil etishning hamma shakllarida har xil metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, bular quyidagilar:

- har bir mehnat jarayonini namuna asosida tushuntirib borish;
- bo'lajak mehnat faoliyati to'g'risida uning mahsulini ko'rsatish orqali suhbat;
- tarbiyachining hikoyasi.
- bolalarni mustaqil ishlashlarini mashq qildirish;
- o'yin - mashqlar va didaktik o'yinlar.

Butun mehnat jarayonini va uning ayrim qismlarini ko'rsatish, tushuntirish, eslatish, nazorat qilish, o'z-o'zini nazorat, bajarilgan ishni baholash ayniqsa zarur. Mehnat tarbiyasi masalalari Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik rejasida aks ettiriladi va tarbiyachilarga mehnat tarbiyasini to'g'ri

rejalashtirish va amalga oshirishda yordam beradi. Bolalar bog`chasida mehnat tarbiyasining to`g`ri tashkil etish va unga rahbarlik qilish yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi. Bolalarda ishchanlik, har qanday mehnatda qatnashish, boshlangan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamalik, o`z shaxsiy mehnatiga nisbatan to`g`ri munosabatni tarbiyalash, javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat`iylik tashabbuskorlik va faollik, sabr matonatlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash muhim hisoblanadi. Madaniy xulq va o`z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o`zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o`z mehnati bilan qatnashish, o`zi va o`rtoqlarining mehnatini xolisona baholash yordam berish. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida mehnat tarbiyasi ikki yo`nalishda amalga oshiriladi.

- Bolalarning o`zini mehnatga o`rgatish.
- Kattalar mehnati bilan tanishtirish.

Katta guruhda bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlari umumlashtiriladi. Kishilar mehnatiga hurmat hissi tarbiyalanadi. Ishlab chiqarish korxonalarini, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat xaqidagi bilimlar takomillashtiriladi. Mehnat faoliyatida va bolalarning mehnat jarayonida tarkib topadigan shaxsiy fazilatlariga qo`yiladigan talablarning asta-sekin murakkablashib borishi masalalariga ham alohida e`tibor qaratiladi.

Mehnat tarbiyasiga oid bilimlar bolalarning shaxsiy mehnat faoliyatining shakllanishi, uning tashkil etilishi, rivojlantirilishi, natijalariga ta`sir etadi. Bolalar kattalarga taqlid qilib, mehnat jarayonini yaxshiroq va maqsadga muvofiq qilib bajarilishini o`rganib boradilar. Egallagan bilimlari orqali mehnatga to`g`ri munosabat, unga qiziqish, mehnat faoliyatida kattalarga taqlid qilishga intilish, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lish hissini shakllantirishga asos bo`ladi.

Katta guruhda kattalar mehnati bilan tanishtirish vositasida bolalarda "Mening ota va onam nima uchun ishlaydilar?" mavzusi orqali kattalar mehnatiga munosabatni tarbiyalash mumkin. Buni biz Termiz shaxridagi 21-sonli Maktabgacha ta`lim tashkilotining o`rta guruhida mashg`ulot jarayonida kuzatdik.

Mavzu: Mening ota va onam nima uchun ishlaydilar?

Maqsad: Bolalarning turli xil kasblar xaqidagi tasavvurlarini kengaytirish va ularga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ota-ona mehnatining qadriga yetishga o`rgatish, bolalar ongiga "maosh", "oylik" so`zlarining mohiyatini singdirish va lug`atiga kiritish.

Mashg`ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar har kuni bog`chaga, aka-opalaringiz esa maktabga o`qish uchun, ota-onalaringiz ishga boradilar-a?

Bolalar: ha.

Tarbiyachi: bolalardan ota-onalarining kasbi, ish joylari xaqida so`raydi. Bolalarning birin-ketin javoblarini tinglaydi va shu tariqa turli xil kasblar xaqida qisqacha suhbat o`tkazadilar.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar hech o`ylab ko`rganmisizlar, ota-onalarimiz nima uchun ishga boradilar ekan-a?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: To`g`ri, bolalar ota-onalarimiz ishlab har oyda maosh oladilar. Shu maoshni oilangiz kamchiligiga: oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro`zg`or buyumlari, o`yinchoqlar, o`quv qurollari, xullas, zarur bo`lgan narsalarni xarid qilib olish uchun ishlatadilar. Bu bilan ular so`zlarni bekamu-ko`st, baxtli yashashlaringiz uchun astoydil mehnat qiladilar. Agar ota-onalarimiz ishga bormasalar, biror hunar bilan shug`ullanmasalar maosh, ya'ni oylik olmaydilar. Bu esa oilamizda turli xil yetishmovchiliklarga sabab bo`ladi. Xatto bog`chamiz uchun to`lanadigan pulni ham to`lay olmaymiz. To`g`rimi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Shuning uchun biz bog`chaga kelayotganimizda turli xil narsalarni sotib olib berishni talab qilib, ularning kayfiyatini buzmasligimiz kerak. Agar ular ishga yaxshi kayfiyatda ketsalar ishlari ham unumli, sermahsul bo`ladi. Nima deb o`ylaysizlar?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Kechqurun esa ota-onalarimizni yaxshi, iliq, kayfiyatda kutib olishimiz kerak. Chunki ular kun bo`yi mehnat qilib, ishdan xorib-charchab keladilar. Ularning mehnatini qadriga yetishimiz kerak. Chunki ular bu bilan o`zgaralar manfaatini ham ko`zlaydilar. El-yurt uchun, odamlar og`irini yengil qilish uchun, xalqimiz foydasi uchun mehnat qiladilar.

Masalan, o`qituvchi bolalarga bilim beradi, kasb-hunar o`rgatadi, ularning odobli, elga mashur bo`ladigan qilib tarbiyalaydi, shifokor esa dardimizga darmon bo`ladi, haydovchi esa uzog`imizni yaqin qiladi, tikuvchi esa bizni turli xil kiyimlar bilan yasantiradi. Shuning uchun biz ota-onalarimizga uy ishlarida yordam berishimiz, kiyimlarimizni, uy jihozlarni toza saqlashimiz, ularni asrab-avaylashimiz kerak. Chunki ular ota-onalarimizning bir oylik mehnati evaziga keladi. To`g`rimi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Biz qanchalik ota-onalarimiz mehnatining qadriga yetsak, ular bizdan shunchalik hursand bo'ladilar, charchoqlari yoziladi va hammangizga eng yaxshi narsalarni olib beraveradilar.

Qani aytinglarchi, sizning ota-onangiz yaqinda sizga nima olib berdi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: So'ng tarbiyachi T. Yo'ldoshning «Ota-ona» she'rini o'qib beradi:

Ota-ona ikki so'z

Biri qoshu, biri ko'z.

Bir-biridan qimmatli

Mehri daryo himmatli.

Ular o'zin o'ylamas

Farzand sog' bo'lsa bas.

Goh siqilib tursa ham,

Gohi yig'lab, kulsa ham,

Hammasiga chidarlar,

Bolalar tinglashadi.

Tarbiyachi: Biz bolani oilada mehnatga o'rgatibgina qolmasdan ularni tejamkorlikga ham o'rgatib borishimiz lozim.

Bu borada xonadonlarda uchraydigan tashlandiq ashyolardan foydalanamiz.

Har bir tashlandiq ashyodan biror bir buyum yasashni o'rgatsak, bolalarda ijodkorlik hissi ham shakllanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar mehnatiga bo'lgan munosabati "Ilk qadam" tayanch dasturi asosida shakllanadi. Bolalarda o'z tarbiyachisi va boshqalar mehnati haqidagi tushunchalari kengaytirib boriladi. Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonova Z, Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi. T., 2007 y.

2. Nishonova Z.T. «Bolalar psixologiyasi» o'quv qo'llanma. – T., 2006 y.

3. Norbosheva M. Bolalar Psixologiyasi. T., 2002 yil

4. Xasanboyeva O.U «Maktabgacha ta'lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.

5.ГМ Алтибаева.Особенности организации взаимодействия дошкольного образовательного учреждения семьями воспитанников. Вестник современной науки б 19-22

6.G Altibaeva .Processes Of Formation intellectual Abilities of Preschool Teachers Through innovative Technologies.Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 3 18-21

7.К.А. Хамраевна. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior Preschool Age // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). - General Rublik licens. – Spanish, 2019. - Vol. 16. - N 2. - 2019, - P. 265-267.

8. Г.У Холбоева, Р.Ж Окбоева Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста.

- Евразийский научный журнал, 2018

9. Г.У Холбоева - Болалариини мактаб таълимига психологик тайёргарлиги. Новости образования: исследование в XXI веке, 2022